

**Bobojonov Nurimon Shaxriyor o'g'li**

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, talabasi

[nurimonbobojonov@gmail.com](mailto:nurimonbobojonov@gmail.com)

---

## **QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI YERLARINING MELIORATIV HOLATI VA OROL MUAMMOSI**

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan ilk kunlardan boshlab qishloq xo‘jaligini rivojlantirish yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va oqilona foydalanish maqsadida ko‘plab dasturlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanish uchun, ko‘plab investitsiyalar jalb qilindi. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi yerlarning meliorativ holati va Orol muammosi haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Fon, meliorativ, deklaratsiya, memorandum, katastrofik, gidroenergetik, intensiv.

**Abstract:** Since the first days of independence, our country has implemented many programs to improve land reclamation and rational use of agricultural development. At the same time, many investments were attracted for the use of land resources in agriculture. In this article, opinions are expressed about land reclamation of the Republic of Karakalpakstan and the problem of the island.

**Key words:** background, reclamation, declaration, memorandum, catastrophic, hydropower, intensive.

**Аннотация:** С первых дней независимости в нашей стране реализовано множество программ по улучшению мелиорации земель и рациональному использованию сельскохозяйственных разработок. В то же время было привлечено много инвестиций для использования земельных ресурсов в сельском хозяйстве. В данной статье высказаны мнения о мелиорации земель Республики Каракалпакстан и проблеме острова.

**Ключевые слова:** предпосылки, рекультивация, декларация, меморандум, катастрофа, гидроэнергетика, интенсив.

---

**Kirish.** So‘nggi yillarda Qoraqalpog‘istonda kuzatilayotgan holatlardan biri bu yerlarning meliorativ holati yomonlashuvi bilan jiddiy muammolar yuzaga kelayotgani fonida yuz bermoqda.

**Asosiy qism.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi yerlarning tuproqlari hududiy o‘zgarib boradi. Amudaryo deltasida allyuvial – o‘tloq, allyuvial, o‘tloq – to‘qay, qurib qolgan ko‘l va botqoqliklarda tipik sho‘rxok, Ustyurt platosida va Qizilqumda taqir tuproqlar, Qiziljar, To‘qmoqtog‘ va Ustyurt platosida kulrang, qo‘ng‘ir, Orol dengizining qurib qolgan tubida qumli cho‘l tuproqlari tarqalgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha izchil choralar ko‘rib kelinmoqda. Natijada, keyingi uch yil ichida 47 ming gektardan ortiq yerlarning suv ta‘minoti yaxshilandi, kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar 11,2 ming gektarga kamaydi, 140 ming gektardan ortiq maydonning meliorativ holatini barqaror saqlashga erishildi.

Shu bilan birgalikda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 44,9 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning suv ta‘minoti past darajada, 95,2 ming gektar sug‘oriladigan maydonlar o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan, mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligi esa pastligicha qolmoqda.

Qolaversa, bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv xo‘jaligi ob‘ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini keng joriy qilish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslari va elektr energiyasidan foydalanishning avtomatlashgan nazoratini yo‘lga qo‘yish hamda ilm – fan yangiliklarini ishlab chiqarishga keng joriy etish orqali suv yo‘qotishlarini kamaytirib, kanallarning foydali ish koeffitsiyentini oshirish hamda sug‘oriladigan yer maydonlarini suv bilan ishonchli ta‘minlash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Suv manbalaridan noto‘g‘ri foydalanishning eng ayanchli ko‘rinishlaridan biri Orol dengizi qurishidir. Buning natijasida 5 million gektar maydonda yangi cho‘l – orolqum paydo bo‘ldi. Bu hududda ichimlik suv tanqisligi, xavfli kasalliklar tarqalishi, yashash sharoitlari og‘irlashishi natijasida aholi migratsiyasi ko‘paydi, yovvoyi o‘simliklar va hayvonot dunyosi qirilib ketmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, faqatgina Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi sa‘y – harakatlarigina Orol dengizining yanada qurib ketishining oldini olishi mumkin. Afsuski, mintaqa davlatlari umumiy deklaratsiya va memorandumlarni imzolashdan nariga o‘tmayapti. Orol dengizi muammosini hal qilishdagi muvaffaqiyatsizliklarni uning asosan Qozog‘iston va O‘zbekiston hududida joylashgani va bu Respublikalarning «Ichki dengizi» hisoblanishi bilan izohlash mumkin. Qolgan Respublikalar esa o‘z ichki gidroenergetik siyosati va intensiv qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi maqsadlari sabab yuzaga kelayotgan katastrofik vaziyatga yetarli darajada e‘tibor qaratayotgani yo‘q. «Orol tangligi, deb ta‘kidlaydi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning ta‘sirida qoldi. 1911 – 1962 – yillarda Orol dengizining satxi eng yuqori nuqtada bo‘lib 53,4 metrni, suvning hajmi 1064 kub kilometrni, suvning yuzasi 66 ming kvadrat kilometrni va minerallashuv darajasi 1 metr suvda 10 – 11 grammni tashkil etgan edi. 1994 – yilga kelib Orol dengizidagi suvning satxi – 32,5 metrga, suv hajmi – 400 kub kilometrda kamroqqa, suv yuzasining maydoni esa 32,5 ming kvadrat kilometrda tushib qoldi, suvning minerallashuvi ikki barobar ortdi». Hozirgi kunda suv zaxirasi mintaqa ehtiyojlarini minimal darajada qondirishga ham yetmay qoldi. Yer maydonlari hozirgi jon boshiga 10 sotixdan to‘g‘ri kelmoqda. Bu iqtisodiy muammolar Orol inqirozining hal qilinishiga bevosita bog‘liq.

Faqatgina Orol dengizi sharoitida yashashi mumkin bo‘lgan 20 xildan ziyod baliq turi yo‘qolib ketdi, o‘tgan asrning 60 – yillarida yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlangan, hozir birorta baliq qolgani yo‘q. Hozirda Orol dengizining qurigan qismida saksovlzorlashtirish ishlari davom etmoqda, ammo bu hali dunyoda misli ko‘rilmagan ish hisoblanadi.

**Xulosa.** Yagona yo‘limiz “Yashil hudud” barpo etish bo‘lib qolmoqda. Bu ishlar tavakkal bilan emas, aniq maqsad va ilmiy asoslangan tadqiqotlar bilan qilinmoqda. Yana bir kechiktirib bo‘lmaydigan muhim masalalardan biri sug‘orishni jadallashtirish maqsadida Amudaryo va Sirdaryo havzalarida tashkil etilgan suv omborlarining holatidir. Bu suv omborlariga Amudaryo va Sirdaryodan ko‘p suvlar olinib daryolar suvining keskin qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Lekin suv omborlari suvining ko‘p qismi bug‘lanib ketmoqda, yildan – yilga loyqalar hisobiga ularning satxi ham qisqarib bormoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. I.A.Karimov “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida”. T.: Ўзбекистон, 1998, В – 131

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 10 - iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 - yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 6024 – sonli farmoni. Toshkent, 2020.

3. Urunov I. “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi faoliyatlar”. -T.: 2010.

4. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net).

5. [www.uzstat.uz](http://www.uzstat.uz).